



**TASHKENT STATE
UNIVERSITY OF ECONOMICS**

VOLUME 7 / 2024

LABOR ECONOMICS

MEHNAT IQTISODIYOTI VA INSON KAPITALI

ilmiy elektron jurnali

**LABOUR ECONOMICS AND
HUMAN CAPITAL**

scientific electronic journal

2024 yil 3-son

Volume 9, Issue 3, 2024



**MEHNAT IQTISODIYOTI
VA INSON KAPITALI**
ISSN: 3030-3117



LABORECONOMICS.UZ

MEHNAT IQTISODIYOTI VA INSON KAPITALI

№ 3-2024

**ЭКОНОМИКА ТРУДА И ЧЕЛОВЕЧЕСКИЙ
КАПИТАЛ**

LABOR ECONOMICS AND HUMAN CAPITAL

“Mehnat iqtisodiyoti va inson kapitali” ilmiy elektron jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi (OAK) rayosatining 2023-yil 3-iyundagi 328/3-sonli qarori bilan ro'yxatga olingan.

Muassis: “Mehnat iqtisodiyoti va inson kapitali” ilmiy maktabi.

Tahririyat manzili:

100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi,
49 uy

Elektron manzil: ilmiymaktab@gmail.com

Jurnal web-sayti: www.laboreconomics.uz

Bog'lanish uchun telefonlar:

+998998818698

Tahririyat Kengashi raisi:**(Chairman of the Editorial Board)**

Abduraxmanov Qalandar Xodjayevich, O'zFA akademigi

Tahririyat Kengashi a'zolari:**(Members of the Editorial Board)**

Toshqulov Abduqodir Hamidovich, i.f.d., prof.
Yusupov Axmadbek Tadiyevich, i.f.d., prof.
Sharipov Kongratboy Avezimbetovich, t.f.d., prof.
Raifkov Kudratilla Mirsagatovich, i.f.d., prof.
Xalmuradov Rustam Ibragimovich, i.f.d., prof.
Umurzakov Baxodir Xamidovich, i.f.d., prof.
Nazarov Sharofiddin Xakimovich, i.f.d., prof.
Jumayev Nodir Xasiyatovich, i.f.d., prof.
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, i.f.d., prof.
Eshov Mansur Po'latovich, i.f.d., prof.
Zokirova Nodira Kalandarovna, i.f.d., prof.
Xudoyberdiyev Zayniddin Yavkachevich, i.f.d., prof.
Muxiddinov Erkin Madorbekovich, i.f.f.d., (PhD)
Xolmuxammedov Muhsinjon Murodullayevich, i.f.n., dots.
Amirov Lochinbek Fayzullayevich, i.f.f.d., (PhD), dots.
G'oyipnazarov Sanjar Baxodirovich, i.f.d., (DSc), dots.
Shakarov Zafar Gafarovich, i.f.f.d., (PhD)

Jamoatchilik Kengashi a'zolari:**(Community Council members)**

Bred Bodenxauzen (AQSh)
Jon Ankor (Buyuk Britaniya)
Odegov Yuriy Gennadevich (Rossiya Federasiyasi)
Keynz Miller (AQSh)
Sung Dong Ki (Koreya Respublikasi)
Masato Xivatari (Yaponiya)
Gerxard Feldmayer (Germaniya)
Eko Shri Margianti (Indoneziya)
Ahmed Mohamed Aziz Ismoil (Misr)
Rohana Ngah (Malayziya)
Sharifah Zanniyerah (Malayziya)
Teguh Dartanto (Indoneziya)
Nur Azlinna (Saudiya Arabistoni)
Muhammed Xoliq (Pokiston)
Alisher Dedaxonov (Toshkent)

Mas'ul muxarrir (Editor-in-Chief): G'oyipnazarov Sanjar Baxodirovich

Veb-administrator (Web admin): Musayev Xurshid Sharifjonovich

MUNDARIJA (CONTENTS)**MEHNAT BOZORI VA MEHNAT MUNOSABATLARI**

S.B.G'oyipnazarov A.B.Xayitov G.F.Abdumalikova	<i>Labor market transformations in developing countries</i>	5-23
B.E.Mamaraximov	<i>Ishchi kuchini takror ishlab chiqarish va yoshlar bandligini ta'minlashning davlat siyosati</i>	24-29
J.D.Jo'rayev	<i>O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotda aholining ish bilan bandligini ta'minlash</i>	30-37
T.T.Xalikov	<i>Raqamli iqtisodiyot sharoitida bitiruvchilarni bandligini ta'minlash tizimining matematik modelini optimallashtirish</i>	38-45
T.T.Xalikov	<i>Raqamli iqtisodiyot sharoitida oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilarini ish bilan ta'minlash tizimini takomillashtirish</i>	46-51
F.X.Mamatova	<i>Barqaror iqtisodiy o'sishda mehnat unumdorligini oshirish yo'llari</i>	52-62

INSON KAPITALI

K.X.Abduraxmonov S.S.Ismoilov	<i>Роль стратегических инвестиций в развитие человеческого капитала в условиях цифровой трансформации банковской системы Узбекистана</i>	63-74
S.B.G'oyipnazarov T.N.Azimov	<i>Inson kapitalini raqamli rivojlanish holatini baholashning uslubiy asoslari</i>	75-88

INSON RESURLARINI BOSHQARISH

G.Q.Abduraxmonova M.Sh.Xaydarova	<i>Davlat korxonalarida inson resurslarini rivojlantirishga ta'sir etuvchi omillarni aralash usul yordamida baholash</i>	89-110
U.X.Abdukarimov	<i>Davlat fuqarolik xizmatchilarining salohiyatini rivojlantirish: yangi davr talabi va imkoniyatlari</i>	111-120
M.A.Qayumova	<i>Strategies for enhancing faculty motivation: evidence-based practices for higher education institutions</i>	121-131
X.A.Ortiqov G.X.Anvarova	<i>Muassasalarda yil o'rtasida shtat jadvaliga o'zgartirish kiritish tartibi</i>	132-138
M.A.Yusupova	<i>Bank sohasida sun'iy intellektni integratsiya qilish orqali mehnat tashkilotini transformatsiya qilish</i>	139-152

TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH

Z.Dj.Adilova	<i>Qoraqalpog'iston Respublikasida turizmni</i>	153-162
B.K.Kusekeyev	<i>rivojlantirish istiqbollari</i>	
B.Z.Arzimatov	<i>Привлечения инвестиций в сферу туризма в</i>	163-170
	<i>Узбекистане: тенденции и события</i>	
N.O.Jumaniyozov	<i>Mintaqalararo iqtisodiy integratsiyaning</i>	171-180
	<i>O'zbekiston iqtisodiyotiga ta'siri</i>	
K.J.Sodiqxo'jayev	<i>Moliyaviy resurslar defitsiti sharoitida xo'jalik</i>	181-187
	<i>yurituvchi subyektlarni samarali boshqaruv</i>	
	<i>strategiyasini takomillashtirish</i>	
N.S.Yuldashev	<i>O'zbekiston iqtisodiyotining barqaror taraqqiyotiga</i>	188-195
	<i>xorijiy investitsiyalar ta'siri</i>	



MEHNAT IQTISODIYOTI VA INSON KAPITALI

ISSN: 3030-3117

<https://laboreconomics.uz/>



O'ZBEKISTONDA RAQAMLI IQTISODIYOTDA AHOLINING ISH BILAN BANDLIGINI TA'MINLASH

Jo'rayev Javohir Dadajon o'gli

Axborot texnologiyalari va axborot resurslarini
rivojlantirish markazi

Direktor o'rinbosari

javohirjuraev1992@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyotning shakllanishi va rivojlanishi, raqamli infratuzilmani yaratish va mustahkamlash orqali iqtisodiyotda raqamli texnologiyalar asosida yangi ish o'rinlarini yaratish, yoshlarni IT sohasiga jalb qilish, raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi bilan bandlik tuzilmasida yuz bergan o'zgarishlar, an'anaviy kasblar asta-sekin avtomatlashtirilgan va raqamli texnologiyalar tomonidan almashtirilayotganligi, bu esa ayrim ish o'rinlarining yo'qolishiga olib kelayotganligi haqida batafsil yoritilgan.

Kalit so'zlar: Raqamli iqtisodiyot, bandlik, raqamli infratuzilma, ish o'rinlari.

ОБЕСПЕЧЕНИЕ ЗАНЯТОСТИ НАСЕЛЕНИЯ В ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКЕ В УЗБЕКИСТАНЕ

Джураев Джавахир Дадажон угли

Центр развития информационных технологий
и информационных ресурсов
Заместитель директора

Аннотация. В данной статье рассматриваются формирование и развитие цифровой экономики в Республике Узбекистан, создание новых рабочих мест в экономике на основе цифровых технологий за счет создания и укрепления цифровой инфраструктуры, привлечения молодежи в сферу ИТ, изменения в структура занятости с развитием цифровой экономики, традиционные детали того, как профессии постепенно автоматизируются и заменяются цифровыми технологиями, что приводит к потере части рабочих мест.

Ключевые слова: Цифровая экономика, занятость, цифровая инфраструктура, рабочие места.

PROVIDING EMPLOYMENT OF THE POPULATION IN THE DIGITAL ECONOMY IN UZBEKISTAN

Jurayev Javokhir Dadajon ugli

Center for the development of information technologies
and information resources
Deputy director

Abstract. In this article, the formation and development of the digital economy in the Republic of Uzbekistan, the creation of new jobs in the economy based on digital technologies through the creation and strengthening of the digital infrastructure, attracting young people to the IT sector, changes in the employment structure with the development of the digital economy, traditional details how occupations are gradually being automated and replaced by digital technologies, leading to the loss of some jobs.

Keywords: Digital economy, employment, digital infrastructure, jobs.

Kirish

O'zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyotning shakllanishi va rivojlanishi mamlakatning iqtisodiy taraqqiyotini yangi bosqichga ko'tarishda muhim omil bo'lmoqda. So'nggi yillarda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan qabul qilingan bir qator farmon va qarorlar ushbu sohani rivojlantirish, aholini raqamli iqtisodiyotga jalb etish hamda yangi ish o'rinlarini yaratishga qaratilgan. Xususan, 2020-yil 5-oktabrda imzolangan "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi, mamlakatda raqamli iqtisodiyotni keng ko'lamda rivojlantirish va zamonaviy texnologiyalarni barcha sohalarga joriy qilishni ko'zda tutadi. Bu strategiya, raqamli infratuzilmani yaratish va mustahkamlash orqali iqtisodiyotda raqamli texnologiyalar asosida yangi ish o'rinlarini yaratish, shu jumladan yoshlarni IT sohasiga jalb qilishni ham o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan.

Shu bilan birga, 2022-yil 28-fevralda tasdiqlangan "Yangi O'zbekistonni 2022-2026 yillarda rivojlantirish strategiyasi"da ham raqamli iqtisodiyotning ahamiyati alohida ta'kidlangan. Ushbu strategiyada raqamli texnologiyalar orqali yangi ish o'rinlari yaratish, aholining bandligini oshirish hamda iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirish masalalari asosiy yo'nalishlardan biri sifatida belgilangan. Bu borada davlatimiz rahbari tomonidan qabul qilingan qarorlar, mamlakatda raqamli iqtisodiyotning tezkor sur'atlarda rivojlanishini ta'minlash bilan birga, global raqamli transformatsiyaga integratsiya jarayonini ham tezlashtirmoqda.

Ushbu o'zgarishlar sharoitida, raqamli iqtisodiyotda bandlikni ta'minlash, yoshlar va malakali mutaxassislarni ushbu sohada ish bilan ta'minlash muhim vazifa sifatida namoyon bo'lmoqda. Prezidentimizning tashabbuslari bilan tashkil etilgan IT-parklari, startup loyihalari va raqamli texnologiyalarni rivojlantirishga qaratilgan dasturlar mamlakatda raqamli iqtisodiyotda yangi ish o'rinlarini yaratishning asosi bo'lib xizmat qilmoqda. Bu esa, o'z navbatida, aholi bandligini oshirish va iqtisodiyotning barcha sohalarida raqamli transformatsiyani jadallashtirish imkonini bermoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi

Ko'plab xorijlik va mahalliy olimlar tomonidan raqamli iqtisodiyotda bandlikni ta'minlash, yoshlar va malakali mutaxassislarni ushbu sohada ish bilan ta'minlash masalalari, muammolaeri va yechimlari haqida tadqiqot ishlari olib borishgan.

Erik Brynjolfsson va Andrew McAfee o'zlarining "The Second Machine Age: Work, Progress, and Prosperity in a Time of Brilliant Technologies" [1]

nomli kitobida raqamli texnologiyalarning bandlikka ta'sirini chuqur tahlil qilishadi. Ular texnologik taraqqiyotning tezlashishi va raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi natijasida ko'plab an'anaviy ish o'rinlari yo'qolayotganini, lekin shu bilan birga yangi ish o'rinlari ham yaratilayotganini ta'kidlaydi. Ular yangi texnologiyalar tufayli jamiyatda hosil bo'layotgan ijtimoiy va iqtisodiy o'zgarishlarni ham muhokama qiladi. Kitobda bandlikni oshirish uchun raqamli mahoratni rivojlantirish va texnologiyalardan foydalanish yo'llari ham ko'rsatilgan.

Carl Benedikt Frey va Michael A. Osborne [2] tomonidan olib borilgan "The Future of Employment: How Susceptible Are Jobs to Computerization?" nomli tadqiqot ishida raqamli texnologiyalar, avtomatlashtirish va sun'iy intellektning bandlikka ta'sirini tahlil qilinadi. Ular qaysi sohalar va kasblar eng ko'p avtomatlashtirish xavfi ostida ekanini hisoblab chiqishgan. Tadqiqot natijalari ko'plab an'anaviy ish o'rinlari, ayniqsa, oddiy vazifalarni bajaruvchi kasblarda avtomatlashtirish tufayli yo'q bo'lishi mumkinligini ko'rsatadi. Shuningdek, ular yangi iqtisodiyotda yuqori malakali va ijodiy ishchilar uchun yangi imkoniyatlar yaratilishini ham ta'kidlaydi.

David Autor [3] o'zining tadqiqotlarida avtomatlashtirishning iqtisodiyotga ta'sirini tahlil qiladi va raqamli iqtisodiyotda ish o'rinlari qanday saqlanib qolishini tushuntiradi. U, avtomatlashtirish an'anaviy ish o'rinlarini kamaytirishi mumkinligini tan olsa-da, yangi texnologiyalar yangi ish turlarini yaratishini ta'kidlaydi. Shuningdek, Autor past maoshli va yuqori malakali ishlar o'rtasidagi tafovutni kengaytirishi mumkin bo'lgan raqamli bo'linish masalalarini ko'taradi.

Daron Acemoglu va Pascual Restrepo [4]lar tomonidan ham ushbu mavzu doirasida ilmiy tadqiqotlar olib borilgan bo'lib, raqamli texnologiyalarning ishchi kuchiga qanday ta'sir qilishi o'rganiladi. Ular texnologiyalar, ayniqsa avtomatlashtirish, an'anaviy ish o'rinlarini qisqartirishi mumkinligini, ammo yangi vazifalar va ish turlari paydo bo'lishi tufayli yangi ish o'rinlari ham yaratilishini ta'kidlaydi. Bu ilmiy ishda raqamli iqtisodiyotda yangi ish o'rinlarini yaratishda hukumat siyosatining muhim roli borligi haqida xulosa qilinadi.

O'zbek olimlaridan Q.X.Abduraxmanov [5], G.K.Abduraxmanova [6], A.B.Irmatova [7], A.M.Abdurashidov [8], Sh.K.Alimov [9] kabilar O'zbekiston mehnat bozorining raqamli iqtisodiyotga moslashuvini tahlil qiladi. Shuningdek, mehnat bozori va raqamli texnologiyalar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik, yangi ish o'rinlarining paydo bo'lishi va mavjud ish o'rinlarining transformatsiyasi masalalari ko'rib chiqiladi va raqamli iqtisodiyotning O'zbekistondagi amaliy natijalari va kelgusi yillardagi istiqbollari haqida batafsil ma'lumot beriladi.

I.N.Rakhimov [10] ning "Raqamli iqtisodiyotda yangi ish o'rinlari yaratishning asosiy omillari" nomli maqolasida raqamli iqtisodiyotda yangi ish o'rinlari yaratishda ta'sir ko'rsatadigan asosiy omillarni o'rganadi. U O'zbekiston sharoitida raqamli infratuzilmani rivojlantirish, raqamli

savodxonlikni oshirish va innovatsion loyihalarni qo'llab-quvvatlash orqali yangi bandlik imkoniyatlarini yaratish yo'llarini tahlil qiladi. Maqolada, shuningdek, xorijiy tajriba va O'zbekistondagi real holatlar o'rtasidagi farqlar ham o'rganilgan.

G.S.Karimova [11] "Raqamli iqtisodiyot va uning O'zbekistonda ish bilan ta'minlashga ta'siri" nomli tadqiqotida raqamli iqtisodiyotning O'zbekistonda ish bilan ta'minlash sohasiga ta'sirini o'rganadi. Maqolada mamlakatda raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali yangi ish o'rinlari yaratilishi va mavjud ish o'rinlarining samaradorligini oshirish imkoniyatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, Karimova raqamli iqtisodiyotning ijtimoiy-iqtisodiy natijalari, shu jumladan, aholi bandligiga ta'sirini baholaydi va davlat siyosatining ushbu sohada o'ynagan rolini o'rganadi.

Tadqiqot metodologiyasi

Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi va uning aholi bandligiga ta'sirini o'rganishdan iborat. Xususan, raqamli texnologiyalar joriy qilinishining O'zbekistonda va xorijiy davlatlarda ish o'rinlari yaratilishi va transformatsiyasiga qanday ta'sir ko'rsatganligini aniqlash maqsad qilingan. Buning uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining rasmiy sayti ma'lumotlari asosida statistik va empirik ma'lumotlarni yig'ish va tahlil, statistik guruhlash, taqqoslash usullaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar

Bugungi kunda mamlakatimizda "Yangi O'zbekistonni 2022-2026-yillarda rivojlantirish strategiyasi"da belgilangan muhim vazifalar doirasida davlat tomonidan raqamli savodxonlikni oshirish maqsadida turli o'quv dasturlari, treninglar va onlayn kurslar yo'lga qo'yilgan. Shuningdek, xususi sektor ham raqamli iqtisodiyotga jalb qilinmoqda, buning natijasida yirik kompaniyalar va kichik bizneslar raqamli transformatsiyaga e'tibor qaratmoqda. Bu esa, o'z navbatida, raqamli iqtisodiyotda yangi ish o'rinlari yaratilishiga hissa qo'shmoqda.

O'zbekistonda aholi bandligining umumiy holati mamlakat iqtisodiyotining turli sohalarida mavjud imkoniyatlarga bog'liq. Raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi bilan bandlik tuzilmasida o'zgarishlar yuz bermoqda. Xususan, an'anaviy kasblar asta-sekin avtomatlashtirilgan va raqamli texnologiyalar tomonidan almashtirilmoqda, bu esa ayrim ish o'rinlarining yo'qolishiga olib kelmoqda. Shu bilan birga, yangi texnologiyalar va innovatsion mahsulotlar ishlab chiqarish bilan bog'liq yangi ish o'rinlari paydo bo'lmoqda (1-jadval).

1-jadval ma'lumotlariga ko'ra, Davlat boshqaruvi va mudofaa; majburiy ijtimoiy ta'inot sohasida so'nggi yilda ko'xonalar yopilmagan, eng ko'p Tugatilgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, ishlab chiqarish sanoati, qurilish, Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasiga to'g'ri keladi. Masalan, Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi sohasida 2018-yilda 1603 ta tadbirkorlik subyektlari yopilgan bo'lsa, 2023-

yilda bo'rsatkich 3764 tani tashkil etgan. Ishlab chiqarish sanoatida esa so'ngi 6 yilda yopilgan tadbirkorlik subyektlari soni 2830tadan 5721taga yetgan. Qurilish sohasida 2023-yilda 2018-yilga nisbatan yopilgan tadbirkorlik subyektlari soni 5,4 foizga oshgan va 1753taga yetgan. Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida bu ko'rsatkich 169.3 foizga oshib, 1173tadan 1986taga oshgan.

1-jadval

Tugatilgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni (iqtisodiy faoliyat turlari kesimida)

Soha	2018	2019	2020	2021	2022	2023
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	1603	1728	1324	5952	2784	3764
Ishlab chiqarish sanoati	2830	2836	1787	9162	4497	5721
Qurilish	1663	1711	1159	3990	1463	1753
Professional, ilmiy va texnik faoliyat	466	452	222	1081	393	445
Boshqarish bo'yicha faoliyat va yordamchi xizmatlar ko'rsatish	521	509	230	1298	422	532
Davlat boshqaruvi va mudofaa; majburiy ijtimoiy ta'minot	0	0	0	0	0	0
San'at, ko'ngil ochish va dam olish	121	109	60	405	191	325
Axborot va aloqa	422	388	163	1278	392	568
Moliyaviy va sug'urta faoliyati	384	279	83	677	81	95
Tashish va saqlash	748	670	406	1631	677	1005
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	1173	1175	648	3769	1590	1986
Ta'lim	142	185	58	423	251	407
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	134	167	114	445	229	310

O'zbekistonda IT-sohasida bandlikning ortib borayotganini kuzatish mumkin. Xususan, dasturchilar, tahlilchilar, raqamli marketing mutaxassislari kabi kasblarga talab oshmoqda. Biroq, raqamli iqtisodiyotga o'tishda mehnat bozorida malakali ishchi kuchiga bo'lgan talabni qondirish maqsadida, raqamli ko'nikmalarga ega bo'lmagan aholi qatlami uchun maxsus qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslarini tashkil etish zarur.

AKT sohasida faoliyat yuritayotgan yuridik shaxslarda ishlovchi xodimlar soni

Klassifikator	2018	2019	2020	2021	2022	2023
O'zbekiston Respublikasi	40248	47697	50157	53782	60462	71627
Qoraqalpog'iston Respublikasi	1031	1233	1302	1222	1124	1394
Andijon viloyati	1397	1560	1702	1441	1708	1582
Buxoro viloyati	1506	1693	1770	1801	1979	1826
Jizzax viloyati	731	1012	1113	832	597	672
Qashqadaryo viloyati	927	1152	1052	1243	1248	1407
Navoiy viloyati	1219	1175	1328	1247	1040	1031
Namangan viloyati	1234	1303	1491	1538	1511	1458
Samarqand viloyati	1503	1603	1871	1973	1973	2538
Surxondaryo viloyati	855	1063	1031	1007	1073	1067
Sirdaryo viloyati	211	721	776	666	718	934
Toshkent viloyati	1865	1933	2713	2727	2793	3048
Farg'ona viloyati	2341	2442	2661	2212	2430	2605
Xorazm viloyati	1039	1133	1205	1186	1304	1469
Toshkent shahri	24389	29674	30142	34687	40964	50596

2-jadvalning ko'rsatishicha, mamlakatda AKT sohasida faoliyat yuritayotgan yuridik shaxslarda ishlovchi xodimlar soni 2018-yilda 40248 tadan 71627 kishiga yetgan, ya'ni 177.9 foizni tashkil etgan. 2018-yilda jami AKT sohasida faoliyat yuritayotgan yuridik shaxslarda ishlovchi xodimlar sonidan eng ko'p ulush Toshkent shahar (60.5 foiz), Farg'ona viloyati (5.8 foiz), Toshkent viloyati (4.6 foiz) va Buxoro viloyati (3.7)ga to'g'ri kelsa, eng kam ulush Sirdaryo viloyati (0.5 foiz), Jizzax viloyati (1.8 foiz), Surxondaryo viloyati (2.1 foiz)ga to'g'ri keladi.

2023-yilda jami AKT sohasida faoliyat yuritayotgan yuridik shaxslarda ishlovchi xodimlar sonidan eng ko'p ulush, Toshkent shahri (50596 kishi), Toshkent viloyati (3048 kishi), Farg'ona viloyati (2605 kishi) va Samarqand viloyati (2538 kishi)ga to'g'ri keladi. Eng kam ulush esa Jizzax viloyati (672 kishi), Sirdaryo viloyati (934 kishi) va Navoiy viloyati (1031 kishi)ga to'g'ri kelgan.

Raqamli iqtisodiyot bandlikni tubdan o'zgartirmoqda, yangi imkoniyatlar yaratib, ishchilarning malakasi va talablariga yangi talablar qo'ymoqda. Raqamli iqtisodiyotda bandlikning asosiy xususiyatlari quyidagilar:

1. Yangi ish o'rinlari: Texnologiyalar rivojlanishi bilan yangi ish o'rinlari paydo bo'lmoqda, masalan, dasturchilar, ma'lumotlar mutaxassislari, kiberxavfsizlik bo'yicha mutaxassislari va boshqalar.

2. Masofadan ishlash: Internet va bulutli xizmatlar tufayli ko'plab kasblar masofadan turib bajarilishi mumkin bo'lib qoldi, bu esa global ishchi kuchi bilan raqobatni kuchaytirdi.

3. O'quv va malakani oshirish: Raqamli iqtisodiyotda muvaffaqiyatli bo'lish uchun doimiy ravishda o'rganish va yangi ko'nikmalarni egallash zarurati oshdi.

4. Avtomatizatsiya: Ko'plab an'anaviy ishlar avtomatizatsiya qilinmoqda, bu esa ba'zi kasblarni yo'qotilishiga olib kelishi mumkin, ammo shu bilan birga yangi texnologiyalarga asoslangan kasblar paydo bo'lmoqda.

5. Ijtimoiy tarmoqlar va frilans: Raqamli platformalar ishchilar va ish beruvchilarni osonroq bog'lab, frilans va vaqtinchalik ishlash imkoniyatlarini kengaytirmoqda.

Umuman olganda, raqamli iqtisodiyot bandlikni yangi yo'nalishlarga olib chiqmoqda, lekin shu bilan birga yangi muammolar va imkoniyatlarni ham yaratmoqda.

Xulosa va takliflar

Xulosa qilib aytganda, O'zbekistonda raqamli iqtisodiyot va aholi bandligiga ta'sir ko'rsatadigan bir qator muammolar mavjud:

- Raqamli tafovut: Shahar va qishloq joylar o'rtasida raqamli texnologiyalarni qo'llash imkoniyatlarida tafovut mavjud. Qishloq hududlarida internet infratuzilmasi va raqamli xizmatlardan foydalanish imkoniyatlari cheklangan.

- Malakali kadrlar yetishmovchiligi: Raqamli iqtisodiyotda yuqori malakali kadrlar yetishmovchiligi mavjud bo'lib, bu raqamli transformatsiyani sekinlashtiradi. IT sohasidagi mutaxassislar sonini oshirish uchun maxsus ta'lim dasturlari va treninglarga ehtiyoj katta.

- Avtomatlashtirishning salbiy ta'siri: Raqamli texnologiyalarning joriy qilinishi bilan ayrim sohalarda an'anaviy ish o'rinlari yo'qolmoqda, bu esa bandlikka salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Bu vaziyatda aholini qayta tayyorlash va yangi ko'nikmalarni o'rgatish dolzarb masaladir.

Ushbu muammolarning yechimi sifatida quyidagi takliflarni berish mumkin:

- Raqamli savodxonlikni oshirish: Aholining barcha qatlamlari uchun raqamli ko'nikmalarni oshirishga qaratilgan keng qamrovli o'quv dasturlarini tashkil etish.

- Malakali kadrlar tayyorlash: IT sohasida kadrlar tayyorlash bo'yicha oliy o'quv yurtlari va xususiy sektor hamkorligini kengaytirish, shuningdek, qayta tayyorlash kurslarini ko'paytirish.

- Raqamli infratuzilmani rivojlantirish: Shahar va qishloq hududlarida internet tarmog'i va raqamli xizmatlar infratuzilmasini kengaytirish.

- Xususiy sektorni jalb qilish: Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishda xususiy sektor ishtirokini oshirish va ularning raqamli transformatsiyada faol ishtirok etishini ta'minlash.

Demak, raqamli iqtisodiyot bandlikni tubdan o'zgartirib, yangi imkoniyatlar va talablar yaratmoqda. Texnologiyalar rivoji yangi kasblarni keltirib chiqarmoqda, masofadan ishlash kengaymoqda, va ko'plab an'anaviy ishlar avtomatizatsiyalanmoqda. Shu bilan birga, o'qish va yangi malakalarni

egallash zaruriyati kuchaymoqda. Raqamli platformalar ishchi kuchi bilan bog'lanishni osonlashtirib, frilans va vaqtinchalik ish imkoniyatlarini kengaytirmoqda. Shu sababli, raqamli iqtisodiyot bandlikka ijobiy ta'sir ko'rsatib, yangi yo'nalishlar ochmoqda, lekin yangi muammolarni ham keltirib chiqarmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Erik Brynjolfsson va Andrew McAfee - "The Second Machine Age: Work, Progress, and Prosperity in a Time of Brilliant Technologies" (2014)
2. Carl Benedikt Frey va Michael A. Osborne - "The Future of Employment: How Susceptible Are Jobs to Computerization?" (2013)
3. David Autor - "Why Are There Still So Many Jobs? The History and Future of Workplace Automation" (2015)
4. Daron Acemoglu va Pascual Restrepo - "Automation and New Tasks: How Technology Displaces and Reinstates Labor" (2018)
5. Q.X.Abduraxmanov. Mehnat iqtisodiyoti. Nazariya va amaliyot / Darslik. Qayta ishlangan va to'ldirilgan 3-nashri. T.:O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi "Fan" nashriyot davlat korxonasi, T.: 2019. -592 b.
6. G.K.Abduraxmanova. Inson resurslarini boshqarish. Darslik. "Fan" nashriyoti. T.: 2023. – 396 b. ISBN 978-9943-19-677-3
7. A.B.Irmatova. Ishga yollash strategiyasi. O'quv qo'llanma. T.: 2022
8. A. M. Abdurashidov - "Raqamli iqtisodiyot sharoitida aholi bandligini ta'minlashda innovatsion yondashuvlar" (2021)
9. Sh. K. Alimov - "O'zbekistonda raqamli iqtisodiyot va mehnat bozori: muammolar va istiqbollar" (2022)
10. I. N. Rakhimov - "Raqamli iqtisodiyotda yangi ish o'rinlari yaratishning asosiy omillari" (2020)
11. G. S. Karimova - "Raqamli iqtisodiyot va uning O'zbekistonda ish bilan ta'minlashga ta'siri" (2019)

Mehnat iqtisodiyoti va inson kapitali



+998 71 239 28 13



Tashkent, Uzbekistan



ilmiymaktab@gmail.com



www.laboreconomics.uz